

## SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Bakayeva Nilufar Bahriddinovna*

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI IQTISODIYOT (Tarmoqlar va sohalar bōyicha)  
magistri*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8083616>

**Annotation:** *this article reflects the views on improving the organizational and economic mechanism of investment activity in industrial enterprises.*

**Keywords:** *industrial production enterprises, indicators of the competitiveness index, entrepreneurial ability, chemical industry, development, innovation, management, industry, improvement of the management system.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida qarashlar o'z ifodasini topadi.*

**Kalit so'zlar:** *Sanoat ishlab chiqarish korxonalari, raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlari, tadbirkorlik qobiliyati, kimyo sanoati, rivojlanish, innovatsiya, boshqaruv, sanoat, boshqaruv tizimini takomillashtirish.*

**Аннотация:** *В данной статье находят свое выражение взгляды на совершенствование организационно - экономического механизма инвестиционной деятельности на промышленных предприятиях.*

**Ключевые слова:** *промышленные производственные предприятия, индекс конкурентоспособности, предпринимательские способности, химическая промышленность, развитие, инновации, менеджмент, промышленность, совершенствование системы управления.*

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishning usutuvor yo'nalishlarini aniqlab olish kabi muhim masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-sonli Farmonida belgilab berildi. Qayd etish kerakki, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasini taraqqiy ettirishning bir qancha yo'nalishlari bilan bir qatorda "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'linmasida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga qaratilgan mulohazalar keltirib o'tildi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Dastlabki yo'nalish O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir.

Bundan tashqari, mamlakat miqyosida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi. Dastlabki yo'nalish O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining muayyan bir tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardir. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi industrial tarmoqlarni shakllantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularni qayta jihozlash, mahsulotlar eksportini oshirish bilan

bog‘liq ishlar bevosita investitsion jarayon bilan bog‘liq. Shunday ekan, sanoat ishlab chiqarishini taraqqiy ettirishga doir qabul qilingan me‘yoriy aktlar bevosita investitsiya faoliyatini yuritishga oid tashkiliy-huquqiy hujjatlar bilan uzviy bog‘liq ravishda ishlab chiqilishi va bir-birini to‘ldirishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasida ham investitsiya faoliyatiga oid ko‘plab me‘yoriy – huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning eng asosiysi bu “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Mamlakatimiz sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishda korxonaning strategik rivojlanish maqsadlarida innovatsion faoliyatga oid rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirish, innovatsiyalarni amaliyotga tabiiq etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsion boshqaruv maqsadlari daraxtini shakllantirishda yuqorida taklif etilgan usuldan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish bilan bir qatorda, korxonaning innovatsion rivojlanishining barqarorligini ta‘minlash uchun zamin yaratadi. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish, korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligi ko‘rsatkichlari ta‘sirida o‘zgarishi mumkin bo‘ladi. Ya‘ni sanoat korxonasida innovatsion boshqaruv to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari texnik va yexnologik jihatdan zamon talablariga qanchalik mos bo‘lgani sari ishlab chiqarish hajmi shunchalik yuqori sur‘atda ortadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati sanoat sektorida boshqaruv samaradorligini oshirishni, biznes amaliyotida sanoat biznesining sifat jihatidan o‘shirishni va uning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan yangi boshqaruv vositalarini qo‘llashni talab qiladi. Mikro darajadagi sanoat iqtisodiy tizimlarini rivojlantirishning strategik manfaatlari biznesni kapitallashtirishning o‘shirishiga, uning rivojlanishining barqarorligiga va dinamik o‘zgaruvchan muhitda uzoq muddatli raqobatbardoshlikka va sanoat bozorlarining imkoniyatlariga erishishga qaratilgan. Boshqa tomondan, an‘anaviy ravishda sanoat biznesini rivojlantirishni tezkor boshqarishning maqsadi joriy foyda va iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajaga ko‘tarish hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, bozor, sanoat biznesi va sanoat bozorlarining institutsional o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy samaradorlik sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan mutanosib ravishda tezkor boshqarish funksiyasi sifatida ko‘rib chiqish zarurati yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kimyo sanoati markazlashgan boshqaruv doirasida yaratilgan va boshqarilib, yagona iqtisodiy majmua sifatida qurilgan. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida bir xil sanoat maydonida joylashgan va bitta korxonaga vakili bo‘lgan kimyo sanoati korxonalarini bir-biridan mustaqil ravishda xususiyashtirildi va alohida aksiyadorlik jamiyatlariga ajratildi. Bu oxir-oqibat tovar zanjirlarining uzilishiga olib keldi. Sanoatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, hatto yirik kimyoviy zavodlarda ham texnologik jihatdan mahsulotlarni yetkazib berish zanjiridagi oraliq aloqalari bo‘lib, ularning uzilishi eksportga individual aloqalarni yo‘naltirishga, korxonalar yukining keskin pasayishiga olib keldi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”lgi qarori mamlakat kimyo sanoatining holatini, o‘z hududida yirik kimyoviy majmualarga ega hududlarni, shuningdek sohadagi yetakchi korxonalarini jiddiy tahlil qilish va kimyo sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlantirish yo‘liga o‘tishiga yordam beradigan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish yo‘llarini izlash uchun asos yaratdi. Sanoat ishlab chiqarishining o‘shirish, korxonalarining faol rivojlanishi, ularni ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sharoitida moslashtirish muammolari mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida aks ettirilgan.

Ishlab chiqarish samaradorligini boshqarish nazariyasi va konsepsiyasi (klassik, natija, jarayon), kimyo sanoat biznesini bozor islohotining nazariy va amaliy muammolari bo'yicha fundamental tadqiqotlar natijalari, sanoat biznesini korporativ boshqarish uchun kontseptual asos hisoblanadi. Tadqiqotning instrumental va uslubiy apparati sifatida qiyosiy, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot va empirik bazasi O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik materiallari, ko'rib chiqilgan qator masalalar bo'yicha sanoat korxonalarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanishi ko'p jihatdan ustuvor tarmoqlar, xususan, kimyo, biokimyoviy, gaz va neft-kimyo sanoatining (bundan buyon matnda kimyo sanoati deb yuritiladi) rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda sohada yaratilgan poydevor keyingi 3-5 yil davomida kimyo sanoati salohiyatining barqaror o'sish dinamikasini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga, kimyo sanoatining barcha sohalarini uzoq muddatli progressiv rivojlantirish uchun mustahkam bazani yaratish eng ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sanoatni o'zgartirishni tezlashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning yangi sharoitida kimyo sanoati rivojlanishini strategik qayta isloh qilish maqsadida, kimyo sanoatini o'zgartirishning asosiy uzoq muddatli strategik yo'nalishlari aniqlandi:

- texnologik transformatsiya-mahalliy xom ashyodan, shu jumladan organik sintez va nanotexnologiyalar orqali yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yangi quvvatlar asosida xom ashyodan tayyor mahsulotga ko'p bog'lanishli qiymat zanjirlarini yaratish. Shu bilan birga, qayta ishlanmagan xom ashyo (tabiiy gaz, sanoat tuzi, paxta sellyulozasi, sirka kislotasi va boshqalar) eksportini bosqichma-bosqich kamaytirish mamlakatda ularni chuqur qayta ishlashni tashkil etish orqali; - iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirish-birinchi navbatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va kimyo sanoati korxonalarini o'rtasidagi munosabatlar sohasidagi davlat aralashuvini cheklash va eskirgan rejalashtirish va tarqatish tizimidan butunlay voz kechish; - mulkiy munosabatlar tizimini o'zgartirish-sanoatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va kimyo sanoati korxonalarini xususiylashtirishga xususiy kapitalni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali kimyo sanoati korxonalarida davlat ulushini tubdan kamaytirish, shuningdek korxonalar faoliyatida davlat hokimiyati organlarining aralashuviga yo'l qo'ymaslik; - raqamli transformatsiya-moliyaviy, moddiy va kadrlar harakatini boshqarish, mahsulotlarni markalash, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida buxgalteriya tizimlarini joriy etish sohasiga zamonaviy dasturiy ta'minot tizimlarini joriy etish; - fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zgartirish-innovatsion jarayonlarni tashkil etish va ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy texnologiyalarni o'tkazishda fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yangi tizimini tashkil etish; - kadrlar tayyorlash tizimini o'zgartirish-sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, shuningdek yuqori malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan yaratilayotgan mavjud va yangi ishlab chiqarish obyektlarini kadrlar bilan ta'minlash.

O'zbekistonda kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 30 %ga ortgan bo'lib, bunga asosiy sabab sifatida korxonalarda amalga oshirilgan rekonstruktsiya ishlaridan keyingi samarali faoliyati hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda respublikada kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 9 barobarga ortdi. Respublika bo'yicha kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'atiga katta hissa qo'shib kelayotgan hududlardan biri bu Farg'ona viloyatidir. Farg'ona viloyatida kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 31 % ya'ni respublika o'sish ko'rsatkichlariga yaqin tendensiya aniqlandi.

Rivojlanish deganda korxonani doimiy, maqsadga muvofiq takomillashtirish, uning tarkibiy va funksional tarkibini yangilash, o'zgaruvchan muhitda ishlashning umumiy samaradorligini ta'minlash, yetarli daromad va tegishli xarajatlar tufayli xodimlar, boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat oldidagi barcha majburiyatlarni bajarish tushuniladi.

"Rivojlanish - qisqartirish" koordinatalarida korxonalar rivojlantirishning turli holatlari, shu jumladan faol rivojlanish, barqaror rivojlanish, qayta qurish holati va bankrotlik holati ko'rib chiqiladi. Korxonaning faoliyati va rivojlanishiga bevosita to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan omillardan resurs yetkazib beruvchilar, iste'molchilar va raqobatchilar ta'kidlangan. Bilvosita ta'sir omillari orasida, birinchi navbatda, ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishlarining, shu jumladan jahon kimyo sanoatida, texnologik tuzilmalarning rivojlanishi va o'zgarishi, shuningdek davlatning sanoat va iqtisodiy siyosatining ta'siri ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, korxonalar ishlashi kerak bo'lgan tashqi muhit, kimyo sanoati murakkab dinamik muhit bo'lib, sezilarli o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan eng muhim omillarning ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi va adaptiv boshqaruvni yaratish zarurligini asoslaydi, uning vazifasi tizimning moslashuvchanligini saqlab qolishdir. Shu bilan birga, moslashuv muammolarini hal qilishni ikki darajaga ajratish mumkin: mikroiqtisodiy-aniq iqtisodiy subyektlarning yangi iqtisodiy sharoitlarga bevosita moslashishi va makroiqtisodiy - rivojlanish va texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan davlat organlari tomonidan bozorda ishtirok etilishidir. Kimyo sanoati yuqori moddiy va energiya intensivligi bilan ajralib turadi. Moddiy xarajatlar kimyoviy mahsulotlar narxining 70% dan ortig'ini tashkil qiladi va boshqa tarmoqlar orasida issiqlik energiyasi iste'moli bo'yicha birinchi va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Yoqilg'i va energiya narxi ishlab chiqarish tannarxida 11% dan 25% gacha bo'lgan ulushlarga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda sanoatning barqaror iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini cheklaydigan asosiy omillar mavjud, bu birinchi navbatda: - iqtisodiy islohotlarning eng muhim vazifasini, ya'ni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishdan manfaatdor bo'lgan samarali egasini shakllantirishni ta'minlamagan xususiyashtirishning samarasiz sxemalari va mexanizmlari. Xususan, xususiyashtirishning eng ommaviy bosqichida kimyo majmuasida yangi mulkdorlarning moliyaviy majburiyatlari 25% dan kam bajarildi. - raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlamaydigan past texnik daraja bilan ajralib turadigan sanoat ishlab chiqarish salohiyatining holati. Ishlab chiqarilgan kimyoviy mahsulotlarning yarmidan ko'pining sifat ko'rsatkichlari jahon standartlari talablariga javob bermaydi, bu yaqin kelajakda kimyo sanoat korxonalari uchun nafaqat tashqi, balki ichki bozorida ham vaziyatni jiddiy ravishda murakkablashtiradi. - tabiiy monopoliyalar mahsulotlari (tabiiy gaz, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlari, elektr energiyasi, temir yo'l) uchun narxlar va tariflarning o'sish sur'atlari oshib bormoqda. Uch yil davomida kimyoviy mahsulotlar narxlarining oshishi bilan sanoat iste'molchilari uchun elektr energiyasi narxlarining oshishi.

Energiya resurslari narxlarining o'zgarishiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda kimyo majmuasi korxonalari foydalanadigan eng muhim xom ashyo va materiallar narxlarining o'sishi tezlashdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda O'zbekistonda kimyo sanoatini barqaror rivojlantirish muammosini hal qilish davlatning barcha darajalarida, shu jumladan davlat, sanoat, mintaqaviy darajada va alohida korxonada sanoatni tartibga solishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu yerda asosiy rol davlatga tegishli bo'lishi kerak, uning maqsadi mamlakat kimyo majmuasini rivojlantirishni tezlashtirish bo'lishi lozim.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi “2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ–3012-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori.
3. “Raqamli O‘zbekiston — 2030 Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni